

**FARG'ONA VODIYSI SHAROITIDA TUNLAMLARNING TUR TARKIBI VA BIO -
EKOLOGIK XUSUSIYATLARI****Mirzakarim Yunusov***Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida dotsenti***Sodiqova Shodiyaxon Solijonovna***Farg'ona Davlat universiteti II bosqich magistranti*

O'rta Osiyo sharoitida kuzgi tunlamni tabiatdagi miqdoriy zichligini boshqarib, cheklab turuvchi 50 turga yaqin yirtqich va tekinox'r bo'g'im oyoqli hayvonlar aniqlangan. (Xo'jaev, Xolmurodov, 2009)

Kuzgi tunlamni yashash xususiyatidan kelib chiqqan holda uni tabiiy kushandalar ham tuproq ostida yashirin yashovchi, qurti, lichinkalarni toap oladigan tuproq yirtqichlari va tekinox'rlardan iborat. Bular ichida brakonoidlar, innevmanidlar, trixogrammatidlar, taninidlar oilasiga mansub turlar eng samarali turlar hisoblanadi.

Kuzgi tunlamiga juda ko'p yirtqich va parazitlar kushandalik qiladi. Uni qiradigan hasharot - entomofaglar 150 turdan ortiqdir. Bularning ko'pchiligi parda qanotli va turqanotlilar turkumiga mansub. Ulardan ayniqsa trixogramma va brakon tekinox'ri juda samaralidir. Ularning tabiiy populyatsiyalari ayrim-yillari inson ishtirokisiz ko'sak qurt sonini ekinlarda 50 foizgacha kamaytirganligi qayd qilingan. G'oz dalalarida tabiiy kushandalar nisbati zararkunandaga nisbatan 1:5 ga to'g'ri kelganda ko'k qurtiga qarshi maxsus kurash chorasi o'tkazilmasa ham bo'ladi (Kimsanboyev; Sulaymonov; Rashidov; Boltayev 2007).

Tunlamlarning tur tarkibi.

Faunistik tadqiqotlar natijalari asosida Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida tunlam (*Noctuidae*) kapalaklarning 32 avlodiga mansub 51 turi qayd etildi. Tunlam kapalaklar oilasi 15 avlodining 18 turi (35,3 %) Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida ilk bor qayd etildi. Shulardan 2 avlodga mansub 2 tur (3,9 %) kapalaklar O'zbekiston entomofaunasida ilk marta uchradi. Xulosa. Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida *Noctuidae* oilasi kapalaklarning 32 avlodiga mansub 51 turi qayd etildi. Tunlam kapalaklar oilasi 15 avlodining 18 turi (35,3 %) Farg'ona vodiysi agroekotizimlarida ilk bor qayd etildi. Shulardan 2 avlodga mansub 2 tur (3,9 %) kapalaklar O'zbekiston entomofaunasida ilk marta uchradi. *Noctuidae* oilasi kapalaklarining taksonomik tarkibiga ko'ra *Agrotis* avlodi vakillari eng ko'p (5 ta) turga ega bo'lib, faunadagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi. *Heliothis*, *Euxoa* avlodlari 4 ta (7,7 %) dan, *Mythinna* avlodi 3 ta (5,8 %), *Acronicta*, *Cosmia*, *Mamestra*, *Leucania*, *Noctua*, *Xestia* avlodlari 2 ta (3,8%)dan turga ega bo'lib, qolgan 23 ta avlodlarda ushbu ko'rsatkich 1 ta (1,9%) dan turni tashkil etdi. (M.R.Shermatov, E.A.Botirov)

Paxta yetishtiruvchi barcha mintaqalarda g'ozaning yer ostki qismiga zarar yetkazuvchi tunlamlarning o'n bitta turi aniqlangan. Tunlamlar g'ozaga turli darajada shikast yetkazadi. O'rta Osiyo sharoitida g'ozaga ko'pincha kuzgi tunlam (ko'k qurt) tushadi. Boshqa turlari, jumladan undov va yovvoyi tunlam uncha ko'p uchramaydi, ammo ba'zi-yillarda bunday turlar ham ekinlarga katta xavf tug'dirishi mumkin. Bu tunlamlar hammaxo'r hisoblanadi, lekin ularning xush ko'radigan ekinlari va begona o'tlari mavjud. Masalan, undov tunlami - bedani,

kuzgi tunlam – g‘o‘zani, yovvoyi tunlam esa poliz ekinlarini xush ko‘radi. Yashash tarzi, shikastlashi va kurash usullari hamma tunlamlarda deyarli bir xil.

Kuzgi tunlamning tabiatdagi kushandalarini samaradorlik darajasini aniqlash uchun laboratoriya sharoitida boqish usulidan foydalanildi. Buning uchun turli biotoplardan yig‘ib kelingan kuzgi tunlam tuxumlari, qurtlarini diqqat bilan S/N-EC 2209206 modeli va NLCD-307B modeli binokulyar mikroskoplar ostida tekinox‘rlar bilan zararlangan zararlanmaganligi aniqlangandan so‘ng u to‘g‘risidagi xulosa laboratoriya jurnaliga qayd etilib, nomerlangan sadoklarga solindi. Sadokdagi fitofagni normal rivojlanishi uchun hajmi 3l bo‘lgan shisha bankalarni og‘zi ikki qavatli doka bilan berkitiladi, bunda sadok ichidagi havo almashinuvi tabiatdagi sharoitga yaqin bo‘ladi. Banka ostiga 3-5 sm qalinlikda tuproq solinadi va tuproq namligini me‘yorda saqlash uchun har kuni sutkaning bir vaqtida namlangan paxta solib turiladi. Fitofagni ovqat tarkibi sersuv ildizlar, qora va qizil ituzum nihollari, qo‘ypechak kabi o‘simliklar bo‘ladi. Bu ozuqalar fitofagni tuxumi ichiga va lichinka tanasiga qo‘yilgan tekinox‘rlar tuxumlarini to‘liq rivojlanib uchib chiqishiga imkon yaratiladi. Xo‘jayin tanasidan uchib chiqqan tekinox‘r sadoklarda asal, shakar eritmalari bilan boqiladi. Sadokda saqlashayotgan tekinox‘rlar-yaydoqchilar fitofagni tuxumlari va qurtlarini nechtagacha zararlashi mumkinligini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazdik. Kuzatuv natijalari maxsus laboratoriya jurnaliga qayd qilib borildi. Bundan tashqari, tekinox‘rni samaradorligi sun‘iy ozuqa bilan boqish natijalari ham qayd etib borildi (Xo‘jayev Sh.T 2003).

G‘o‘za tunlamining tuxumi, lichinkasi-ko‘sak qurtini g‘o‘zadagi zararkunandalik darajasini miqdoriy zichligini aniqlash uchun paxta dalasini 2 dioganali bo‘ylab 20 joydan namunalar olindi. Har bir namunada 5 tadan o‘simlikdagi g‘o‘za tunlamini tuxumi, qurtlari g‘o‘zaning jami hosil elementi va undan ko‘sak qurti bilan zararlanganlarini miqdori shuningdek g‘o‘za tunlamining tabiiy kushandalari - yirtqich, tekinox‘rlarni ham turlar bo‘yicha hisobga olindi.

Uni iqtisodiy zarar darajasini belgilashda A.A.Muhammadiev va X.Mustafaqulov (1992) larning Markaziy Farg‘ona hududlari uchun tavsiya qilgan mezonlardan foydalanildi. Bunda vodiyni markaziy xududlari uchun tavsiya qilingan - kuzatilgan har 100 tup g‘o‘zadan 8-10 ta mayda va o‘rta yondosh qurtlarni topilishi IZD sifatida qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda g‘o‘za tunlamini tuxumi va tabiiy kushandalaridan ko‘pxo‘r yirtqichlar va tekinox‘rlarni turlari, miqdoriy zichligi ham hisobga olib borildi (A.A. Muxammediyev., X. Mustafuqulov 1992).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sheraliyev A. Umumiy va qishloq xo‘jalik fitopatologiyasi, “Talqin”, Toshkent, 2004.
2. Shreder nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tekshirish instituti - O‘zbekistonda meva, uzum va rezavor meva yetishtirish texnologiyasi - Toshkent, 1976. - 25-40 b.
3. Юнусов М.М. Тли (Homoptera, Aphidinea) Центрального Тянь-Шаня: Австореф. дис....канд. биол. наук -Ташкент. 1996. - 23 с.